

2022-yil 24-fevral

“JAMIYATDA TUZILAYOTGAN SHARTNOMALARNI KELISHISH, IMZOLASH VA IJRO ETISH SIYOSATI” BO`YICHA SEMINAR O`TKAZILDI



Joriy yilning 23-fevral kuni “O`zkiyosanoat” AJda “Jamiyatda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati” mavzusida seminar bo`lib o`tdi. Kompleks nazorat xizmati tomonidan tashkillashtirilgan tadbirda “O`zkiyosanoat” AJ boshqarma va bo`limlarining rahbar va xodimlari ishtirok etishdi. Unda “Jamiyatda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati”ning mazmun-mohiyati, O`zbekiston Respublikasida xaridlar, shartnomalar va bitimlarni kelishish, imzolash va ijro etish qanday me`yoriy huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi bo`yicha aniq ma`lumotlar berildi.

Seminardan ko`zlangan maqsad, jamiyatda faoliyat olib borayotgan xodimlarni qonunchilikdagi mavzuga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar, yangiliklar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan eng muhim jihatlar bilan yaqindan tanishtirish bo'lib, tadbir davomida ular:

- O`zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan "Davlat xaridlari to`g`risida"gi 684- sonli qonuni;
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PF-6313-sonli farmoni;
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-5171-sonli qarori;
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O`zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to`g`risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida" PQ-3953-sonli qarori;
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi "Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to`g`risida»gi 37-sonli qarori va boshqa muhim manbalarni o`rganish imkoniyatiga etga bo`lishdi.



Qolaversa, shartnomaning majburiy shartlari qilib muqaddima, shartnomaning nomi, shartnoma imzolangan sana, shartnomani imzolash joyi, kontragentning yuridik shaxslarning yagona davlat reestrda ro`yxatdan o`tgan firmasining to`liq nomi, shartnomani imzolagan shaxslarning lavozimi, F.I.Sh., shartnomani imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar e'tirof etilganligi hamda shartnomada

jamiyat va kontragentlar o`rtasida o`rnatilgan huquqiy munosabatlarning mohiyatini aks ettiruvchi mavzu, xarid qilinadigan tovarlar yoki xizmatlar, ishlar smetasining spetsifikatsiyasi, shartnoma narxi, tomonlarning shartnoma bo`yicha o`z majburiyatlarini bajarish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik, nizolarni hal qilish tartibi, yuridik manzillar bank hisoblari haqidagi ma`lumotlar, faks va aloqa telefon raqamlari, elektron pochta manzili va shartnoma muddati ko`rsatib o`tilgan bo`lishi shart ekanligi ishtirokchilarga tushuntirib o`tildi.

Seminar so`ngida ishtirokchilar mavzuga doir qator savollarga batafsil javoblar olishdi va eng muhimi ish faoliyati davomida asqotadigan zarur bilimlarni o`zlashtirishdi.

“O`z kimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/contract-rules>